UDK 378.147:659.4

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING PR KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jumabaev J.B.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
e-mail: jumabaevj777@gmail.com
ORCID: 0009-0000-3599-2407

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining PR kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi bayon etilgan. Pedagogik modellashtirish natijasida maqsadli, mazmuniy-protsessual, texnologik va diagnostik-natijaviy bloklardan iborat, teskari aloqaga ega model ishlab chiqilgan. Metodika motivatsion-orientatsion, nazariy-axborot, amaliy-loyihaviy va refleksiv-baholovchi bosqichlarda amalga oshiriladi; har bir bosqichga keys-stadi, PR-loyiha, rolli simulyatsiya, raqamli hikoya (digital storytelling) va mediaportfolio kabi metodlar biriktirilgan. Shuningdek, mavjud fanlar va pedagogik amaliyotga integratsiya qilinadigan 30 soatlik “Texnologik ta’limda PR asoslari” moduli tuzilmasi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *PR kompetensiyasi, innovatsion yondashuv, metodika, pedagogik model, loyihaviy ta’lim, keys-stadi, raqamli hikoya, texnologiya o‘qituvchisi.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ PR-КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье изложена методика развития PR-компетенции будущих учителей технологии на основе инновационного подхода. В результате педагогического моделирования разработана модель с обратной связью, включающая целевой, содержательно-процессуальный, технологический и диагностико-результативный блоки. Методика реализуется на мотивационно-ориентировочном, теоретико-информационном, практико-проектном и рефлексивно-оценочном этапах; каждому этапу соответствуют такие методы, как кейс-стади, PR-проект, ролевая симуляция, цифровое повествование (digital storytelling) и медиапортфолио. Предложена также структура 30-часового модуля «Основы PR в технологическом образовании», интегрируемого в существующие дисциплины и педагогическую практику.*

Ключевые слова: *PR-компетенция, инновационный подход, методика, педагогическая модель, проектное обучение, кейс-стади, цифровое повествование, учитель технологии.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PR COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH

Abstract. *The article presents a methodology for developing the PR competence of future technology teachers on the basis of an innovative approach. Pedagogical modelling resulted in a feedback-based model comprising target, content-procedural, technological and diagnostic-resultative blocks. The methodology is implemented through motivational-orientational, theoretical-informational, practical-project and reflective-evaluative stages, each supported by methods such as case study, PR project, role-play simulation, digital storytelling and media portfolio. The structure of a 30-hour module "Fundamentals of PR in Technological Education", to be integrated into existing courses and teaching practice, is also proposed.*

Keywords: *PR competence, innovative approach, methodology, pedagogical model, project-based learning, case study, digital storytelling, technology teacher.*

Kirish

Oliy pedagogik ta'limdagi o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim muhitini loyihalovchi va jamiyat bilan faol muloqot qiluvchi mutaxassis sifatida tayyorlashni talab qilmoqda. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlash sifatini mehnat bozori talablariga moslashtirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan [1].

Texnologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati aynan shu talablar kesishgan nuqtada joylashgan. U o'quvchilar bilan amaliy mehnat jarayonini tashkil qiladi, ularning ishlari natijasini maktab ichida va tashqarisida namoyish etadi, ota-onalar va ishlab chiqarish vakillari bilan muloqot qiladi. Bu vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan PR kompetensiyasi — jamoatchilik bilan ikki tomonlama muloqotni rejalashtirish va texnologik ta'lim natijalarini taqdim etish qobiliyati — an'anaviy ma'ruza va namunaviy amaliy mashg'ulotlar orqali yetarli darajada shakllanmaydi. Muloqot ko'nikmalari real yoki realga yaqin vaziyatlarda, o'rganuvchining faol ishtiroki bilangina rivojlanadi.

Shu sababli PR kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvga murojaat qilish tabiiy hol. Innovatsion yondashuv deganda biz yangi metod va

vositalarni tizimli tanlash, ularni kompetensiya komponentlariga moslab bosqichma-bosqich joriy etish va natijani muntazam baholab borishni tushunamiz. E. Rojers innovatsiyani muayyan ijtimoiy tizim a'zolari tomonidan yangi deb qabul qilinadigan g'oya yoki amaliyot sifatida ta'riflaydi [2]. Demak, pedagogik innovatsiya ham uning foydalanuvchilari — talabalar va o'qituvchilar — uchun yangi sifat olib kelgandagina o'z mazmuniga ega bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi — innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, uning modeli, bosqichlari va metodik ta'minotini asoslash.

Materiallar va metodlar

Metodikani ishlab chiqishda oldingi tadqiqotimizda asoslangan PR kompetensiyasining to'rt komponentli tuzilmasi — motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-texnologik va refleksiv-baholovchi komponentlar — asos qilib olindi. Nazariy tayanch sifatida kompetensiyaviy yondashuv [3], tajribaviy o'qitish nazariyasi [4], loyihaviy ta'lim bo'yicha tadqiqotlar [5] va pedagogik texnologiyalarga oid milliy ishlanmalar [6; 7] olindi. PR mazmunini tanlashda jamoatchilik bilan aloqalar nazariyasi [8; 9] va maktab PR amaliyotiga oid manbalar [10] tahlil qilindi.


Tadqiqotda pedagogik modellashtirish, tizimli-faoliyatli tahlil, innovatsion metodlarning didaktik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda texnologik ta'lim yo'nalishi fanlari mazmunini PR vazifalari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash metodlaridan foydalanildi. Metodlarni tanlashda uchta mezonga tayanildi: metod talabani faol harakatga undashi, real kasbiy vaziyatga yaqin bo'lishi va aniq mahsulot (matn, taqdimot, video, tadbir rejasi) bilan yakunlanishi lozim.

Natijalar

Metodikaning modeli. Pedagogik modellashtirish natijasida PR kompetensiyasini rivojlantirish modeli to'rt blokdan iborat holda ishlab chiqildi (1-rasm). Maqsadli blok ijtimoiy buyurtma (ta'lim muassasalarining ochiqligi, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik ehtiyoji) hamda malaka talablaridan kelib chiqadi va kompetensiyaning to'rt komponentini rivojlantirishni yakuniy maqsad sifatida belgilaydi. Mazmuniy-protsessual blok to'rt bosqichni, texnologik blok har bir bosqichga mos metod va vositalarni, diagnostik-natijaviy blok esa mezonlar, darajalar va baholash vositalarini o'z ichiga oladi. Bloklar orasidagi teskari aloqa diagnostika natijalariga ko'ra bosqichlar mazmunini tuzatib borish imkonini beradi.

Metodikaning bosqichlari va metodlari. Bosqichlar kompetensiya komponentlarining rivojlanish mantig'iga ko'ra tartiblangan: avval ehtiyoj va qiziqish uyg'otiladi, so'ng nazariy tayanch beriladi, keyin amaliy tajriba orttiriladi va nihoyat bu

tajriba tahlil qilinib umumlashtiriladi. Bu ketma-ketlik D. Kolbning tajribaviy o‘qitish sikli mantig‘iga tayanadi: Kolb fikricha, o‘rganish siklning istalgan nuqtasidan boshlanishi mumkin [4]; bizda u abstrakt tushunchalashtirishdan boshlanib, faol eksperimentlash, aniq tajriba va refleksiv kuzatish bilan yakunlanadi, sikl boshiga esa motivatsion bosqich qo‘shilgan. Har bir bosqichning vazifalari va metodlari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish modeli (qizil chiziq — teskari aloqa)

1-jadval. PR kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari, metodlari va talaba mahsulotlari

Bosqich	Asosiy vazifa	Innovatsion metod va vositalar	Talaba mahsuloti
Motivatsion-orientatsion	PR faoliyatining texnologiya o‘qituvchisi	muammoli vaziyat; “Maktab imiji” keys-stadi; tajribali	“Men va jamoatchilik” esse;

Bosqich	Asosiy vazifa	Innovatsion metod va vositalar	Talaba mahsuloti
	ishidagi ahamiyatini anglatish	o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qilish	shaxsiy rivojlanish maqsadlari
Nazariy-axborot	PR tushunchalari, kommunikatsiya modellari, auditoriya va kanallar haqidagi bilimlarni shakllantirish	flipped classroom; interaktiv ma’ruza; klaster va “Venn diagrammasi”; onlayn test	tushunchalar xaritasi; auditoriya tahlili jadvali
Amaliy-loyihaviy	PR vositalarini real va simulyatsion vaziyatlarda qo‘llash	PR-loyiha (“Texnologiya ko‘rgazmasi”, “Usta-shogird yarmarkasi”); rolli simulyatsiya; digital storytelling; press-reliz va post yozish ustaxonasi	tadbir rejasi; press-reliz; 1–2 daqiqalik video-lavha; taqdimot
Refleksiv-baholovchi	natijani tahlil qilish, tajribani umumlashtirish, o‘z-o‘zini baholash	mediaportfolio; o‘zaro baholash rubrikasi; “Uch yulduz va bitta tilak”; jamoatchilik fikrini o‘rganish anketasi	portfolio; o‘zini rivojlantirish rejasi

Amaliy-loyihaviy bosqich metodikaning markaziy qismi hisoblanadi. Masalan, “Texnologiya ko‘rgazmasi” loyihasida talabalar 3–4 kishilik guruhlarda ishlaydi: biri ko‘rgazma g‘oyasi va ssenariysini, ikkinchisi ota-onalar va homiylarga taklifnomalarni, uchinchisi ijtimoiy tarmoq uchun e’lon va video-lavhani, to‘rtinchisi esa tashrif buyuruvchilar fikrini yig‘ish anketasini tayyorlaydi. Loyiha pedagogik amaliyot davrida biriktirilgan maktabda amalga oshirilsa, talaba o‘z faoliyati natijasini real auditoriya munosabatida ko‘radi.

Rolli simulyatsiyalarda muammoli vaziyatlar modellashtiriladi. Masalan, ustaxonada o‘quvchi yengil jarohat olgani haqidagi xabar ijtimoiy tarmoqda tarqalgan vaziyat beriladi: talabalar ota-onalar bilan muloqot rejasini tuzadi, rasmiy izoh matnini yozadi va uni guruhda himoya qiladi. Bunday mashg‘ulotlarda inqirozli

kommunikatsiyaning tezkorlik, ochiqlik va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tamoyillari amalda o'zlashtiriladi [11].

"Texnologik ta'limda PR asoslari" moduli. Metodikani o'quv rejasini o'zgartirmagan holda amalga oshirish uchun texnologik ta'lim metodikasi va pedagogik mahoratga oid fanlar hamda pedagogik amaliyotga integratsiya qilinadigan 30 soatlik modul taklif etildi (2-jadval). Zarur bo'lsa, modul tanlov fani sifatida ham o'qitilishi mumkin.

2-jadval. "Texnologik ta'limda PR asoslari" modulining tuzilmasi

№	Mavzu	Ma'ruza, soat	Amaliy, soat	Asosiy metod
1	PRning mohiyati va ta'lim muassasasidagi o'rni	2	2	keys-stadi
2	Kommunikatsiya modellari va auditoriya tahlili	2	2	flipped classroom
3	Texnologiya o'qituvchisining kasbiy imiji va nutq madaniyati	1	2	trening
4	Press-reliz, e'lon va post yozish	1	4	yozuv ustaxonasi
5	Raqamli kontent: foto, video va digital storytelling	1	4	mediamahsulot yaratish
6	Ko'rgazma, yarmarka va ochiq eshiklar kunini tashkil etish	1	2	PR-loyiha
7	Ota-onalar va hamkorlar bilan muloqot; inqirozli vaziyatlar	1	2	rolli simulyatsiya
8	PR faoliyati samaradorligini baholash	1	2	mediaportfolio
	Jami	10	20	30 soat

Modulning o'ziga xosligi shundaki, amaliy mashg'ulotlar soati ma'ruzalardan ikki baravar ko'p, har bir mavzu esa talaba portfoliosiga qo'shiladigan aniq mahsulot bilan yakunlanadi. Shu tarzda modul oxirida talaba keyingi pedagogik amaliyotda foydalanishi mumkin bo'lgan tayyor PR materiallari to'plamiga ega bo'ladi.

Baholash. Diagnostik-natijaviy blokda baholash uch manbaga tayanadi: o'qituvchi kuzatuvi, o'zaro baholash va o'z-o'zini baholash. Talaba mahsulotlari rubrika asosida baholanadi; rubrikada maqsadning aniqligi, auditoriyaga moslik, axborotning ishonchliligi, ijodiylik va texnik sifat mezonlari mavjud. Natijalar reproduktiv, produktiv

va ijodiy darajalar bo‘yicha talqin qilinadi va ulardan keyingi bosqich mazmunini tuzatishda foydalaniladi.

Muhokama

Taklif etilgan metodika PR ta’limidagi xorijiy izlanishlar bilan hamohang. A. O’Donnell PR mutaxassislarini tayyorlashda tajribaviy o‘qitish sikli va aralash ta’lim modelini birlashtirib, inqirozli vaziyat simulyatsiyasini qo‘llagan hamda bu yondashuv talabalarning kommunikativ ko‘nikmalari va tanqidiy fikrlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini qayd etgan [12]. Bizning metodikada ham simulyatsiya va loyiha markaziy o‘rinda turadi, biroq ular pedagogik mazmunga — texnologiya darsi, ustaxona, o‘quvchi mahsulotiga bog‘langan. Bu farq muhim: bo‘lajak o‘qituvchi PR mutaxassisiga aylanmaydi, balki PR vositalaridan pedagogik maqsadda foydalanishni o‘rganadi.

Raqamli vositalardan foydalanishda TPACK modeli foydali tayanch bo‘la oladi [13]. Ijtimoiy tarmoq uchun video tayyorlashning o‘zi kompetensiyani rivojlantirmaydi; u aniq auditoriya, pedagogik vazifa va texnologik ta’lim mazmuni bilan bog‘langandagina samara beradi. Shu bois digital storytelling topshiriqlarida talabadan avval auditoriyani tavsiflash, so‘ngra asosiy g‘oyani bitta gapda ifodalash, shundan keyingina suratga olishga o‘tish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha milliy ishlanmalarda interfaol metodlarning talaba faolligini oshirishdagi o‘rni keng yoritilgan [6; 7]. Metodikamiz bu metodlarni yangi maqsadga — jamoatchilik bilan muloqot ko‘nikmasini shakllantirishga — moslashtiradi. Masalan, “Venn diagrammasi” bir xil voqeani ota-onalar, o‘quvchilar va hamkor korxona uchun qanday turlicha taqdim etish mumkinligini solishtirishda qo‘llaniladi.

Metodikaning cheklovlari ham bor. Birinchidan, amaliy-loyihaviy bosqich pedagogik amaliyot maktabining hamkorligiga bog‘liq: maktab rahbariyati tadbir o‘tkazishga tayyor bo‘lmasa, loyiha simulyatsiya darajasida qoladi. Ikkinchidan, mediaportfolioni baholash o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqt talab qiladi. Metodikaning samaradorligi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokidagi pedagogik tajriba-sinov jarayonida tekshiriladi.

Xulosa

1. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining PR kompetensiyasini rivojlantirish maqsadli, mazmuniy-protsessual, texnologik va diagnostik-natijaviy bloklardan iborat, teskari aloqaga ega model asosida tizimli tashkil etilishi lozim.

2. Metodika motivatsion-orientatsion, nazariy-axborot, amaliy-loyihaviy va refleksiv-baholovchi bosqichlarda amalga oshiriladi; markaziy o‘rinni real auditoriyaga yo‘naltirilgan PR-loyiha, rolli simulyatsiya va digital storytelling egallaydi.

3. Mavjud fanlar va pedagogik amaliyotga integratsiya qilinadigan 30 soatlik "Texnologik ta'limda PR asoslari" moduli metodikani o'quv rejasini o'zgartirmasdan joriy etish imkonini beradi va talabada amaliyotda foydalaniladigan PR materiallari portfoliosini shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. – 5th ed. – New York: Free Press, 2003.

3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.

5. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.

7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.

8. Grunig J.E., Hunt T. Managing Public Relations. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1984.

9. Tench R., Yeomans L. Exploring Public Relations. – 4th ed. – Harlow: Pearson, 2017.

10. Kowalski T.J. Public Relations in Schools. – 5th ed. – Boston: Pearson, 2011.

11. Coombs W.T. Ongoing Crisis Communication: Planning, Managing, and Responding. – 5th ed. – Thousand Oaks: SAGE, 2019.

12. O'Donnell A. A Study in Competency-based Teaching in Public Relations Education: thesis. – Dublin: Griffith College, 2019. – URL: https://go.griffith.ie/handle/123456789/363

13. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.